ÖZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDA ANTONIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA MILLIY MENTALITET VA MADANIY QADRIYATLAR IFODASI

Toştemirov Elyor Nuraliyeviç

University of Economics and Pedagogy NOTM dotsenti, e-mail: tostemiroveler@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz, özbek va rus tillaridagi antonim frazeologik birliklarda milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarning ifodalaniş xususiyatlari qiyosiy-lingvomadaniy aspektda tadqiq etiladi. Uç til frazeologik tizimida insoniy fazilatlar, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar, mehnatsevarlik, saxiylik, halollik va ruhiy holatlarni ifodalovçi qarama-qarşi mazmunli frazeologizmlar tahlil qilinadi. Şuningdek, frazeologik birliklarning obrazli tarkibi, milliy-madaniy konnotatsiyasi va semantik xususiyatlari özaro qiyoslanadi.

Kalit sözlar: antonim frazeologik birliklar, milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar, ingliz tili, özbek tili, rus tili, qiyosiy tilşunoslik, lingvomadaniyat, frazeologik antonimiya, milliy dunyoqaraş.

INTRODUCTION. Til va madaniyat özaro uzviy boğliq hodisalar bölib, har bir xalqning tarixiy tajribasi, milliy dunyoqaraşi, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlari uning tilida, xususan, frazeologik birliklarida öz aksini topadi. Frazeologizmlar xalqning köp asrlik hayotiy tajribasi asosida şakllangan, obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlariga ega bölgan til birliklaridir. Ular orqali insonning xarakteri, xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlari va voqelikka nisbatan baholaş mezonlari ifodalanadi.

Frazeologik birliklar orasida antonimik munosabatga kirişuvçi birliklar alohida ahamiyatga ega. Çunki ular xalq tafakkurida mavjud bölgan yaxşilik va yomonlik,

saxiylik va xasislik, halollik va insofsizlik, döstlik va adovat kabi qarama-qarşi tuşunçalarni obrazli tarzda ifodalaydi.

Ingliz, özbek va rus tillari frazeologik tizimida bunday birliklar keng uçraydi. Biroq ularning semantik mazmuni, obrazli ifoda vositalari va milliy-madaniy konnotatsiyasi bir-biridan farq qilişi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “open-handed” va “tight-fisted”, özbek tilidagi “qöli oçiq” va “qöli qattiq”, rus tilidagi “широкая душа” va “скупой человек” kabi ifodalar saxiylik va xasislik tuşunçalari bilan boğliq bölsa-da, ularda qöllanilgan obrazlar turliça. Mazkur masalaning qiyosiy örganilişi uç xalqning milliy tafakkurida umumiy va özіga xos jihatlarni aniqlaş imkonini beradi.

Ingliz tilşunosligida A.P. Cowie, R. Mackin va I.R. McCaig tomonidan yaratilgan “Oxford Dictionary of English Idioms” asari ingliz tilidagi idiomatik birliklarning ma’nosi va qöllaniş xususiyatlarini aniqlaşda muhim manbalardan hisoblanadi. Mazkur luğat ingliz tilidagi frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlil qiliş, ularning özbek va rus tillaridagi muqobillarini aniqlaş hamda antonimik munosabatlarini qiyoslaş uçun asos böla oladi.

Frazeologik birliklarni örganiş jahon tilşunosligida uzoq tarixga ega bölib, uşbu yönalişda olib borilgan tadqiqotlarda frazeologizmlarning semantik, strukturaviy, funksional va lingvomadaniy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, frazeologik birliklarning xalq milliy mentaliteti, tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini ifodalaş imkoniyatlari zamonaviy qiyosiy tilşunoslikning muhim tadqiqot yönalişlaridan biriga aylangan.

Rus tilşunosligida frazeologiya nazariyasining şakllanişi V.V. Vinogradovning ilmiy qaraşlari bilan çambarças boğliq. Olim frazeologik birliklarni semantik yaxlitligi va tarkibiy qismlarining özaro munosabati asosida tasniflagan. Uning frazeologik birliklarning ma’no xususiyatlariga oid qaraşlari keyingi tadqiqotlar uçun nazariy asos bölib xizmat qilgan. A.V. Kunin esa ingliz tili frazeologiyasini tizimli örganib, frazeologik birliklarning strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlarini yoritgan.

Uning tadqiqotlari ingliz tilidagi turğun birikmalarni qiyosiy örganişda muhim ahamiyatga ega.

V.N. Teliya frazeologik birliklarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etib, ularda xalqning milliy-madaniy tajribasi va dunyoqaraşi mujassamlaşişini ta'kidlaydi. Olimning fikriça, frazeologizmlar nafaqat muayyan tuşunçani ifodalaydi, balki unga nisbatan xalq tomonidan şakllangan baholaş munosabati va madaniy konnotatsiyani ham namoyon qiladi. Bu yondaşuv antonim frazeologik birliklarda aks etgan ijobiy va salbiy qadriyatlarni örganişda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Özbek tilşunosligida frazeologik birliklarning semantik va strukturaviy xususiyatlarini örganişda Ş. Rahmatullayevning ilmiy işlari alohida örin tutadi. Olimning Özbek tilining izohli frazeologik luğati asari özbek tilidagi frazeologizmlarning ma'nosi, qöllaniş doirasi va obrazli xususiyatlarini aniqlaşda muhim manba hisoblanadi. Uşbu luğat asosida "qöli oçiq", "qöli qattiq", "köngli oq", "toş yurak", "yuzi yoruğ" kabi birliklarning semantik va madaniy xususiyatlarini örganiş mumkin.

A. Hojiyevning tilşunoslik terminologiyasiga oid tadqiqotlari esa antonimiya, semantika, frazeologiya va boşqa lingvistik tuşunçalarning nazariy mazmunini aniqlaştirişga xizmat qiladi. Bu tadqiqotlar antonim frazeologik birliklarni oddiy leksik antonimlardan farqlaş va ularning til tizimidagi örnini belgilaşda muhimdir.

Qiyosiy tahlil nuqtayi nazaridan ingliz, özbek va rus tillaridagi frazeologik birliklar umumiy insoniy tuşunçalarni ifodalaşi bilan birga, milliy obrazlar va madaniy konnotatsiyalari bilan farqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi open-handed – tight-fisted, özbek tilidagi "qöli oçiq – qöli qattiq" birliklari saxiylik va xasislik tuşunçalarini öxşaş obraz asosida ifodalaydi. Rus tilida esa "щедрый – скупой" birliklari mazkur qarama-qarşilikni ifodalasa-da, ular alohida frazeologik juftlik emas, balki leksik-semantik antonimlardir. Şu sababli qiyosiy tadqiqotda frazeologik, leksik va kontekstual antonimlarni farqlaş zarur.

RESULTS.

Tadqiqot davomida ingliz, özbek va rus tillaridagi antonim frazeologik birliklar bir neçta semantik-madaniy guruhlarga ajratildi.

Saxiylik va xasislik tuşunçalarining ifodalanişi. Saxiylik va xasislik insonning axloqiy xususiyatlarini belgilovçi tuşunçalar bölib, uç xalqning madaniy qadriyatlar tizimida muhim örin tutadi.

Ingliz tili: *open-handed – saxiy; tight-fisted – xasis.*

Özbek tili: *qöli oçiq – saxiy; qöli qattiq – xasis*

Rus tili: *широкая душа – saxiy; считать каждую копейку - xasis*

Ingliz tilidagi *open-handed* va *tight-fisted* birliklari insonning moddiy boylikka munosabati orqali xarakter xususiyatini ifodalaydi. Özbek tilidagi “qöli oçiq” va “qöli qattiq” iboralarida ham qöl obrazi saxiylik va xasislikning ramziy ifodasi sifatida namoyon böladi.

Rus tilida esa mazkur tuşunçalar köpinça “щедрый” va “скупой” kabi sifatlar orqali ifodalansa-da, frazeologik obrazlar ham mavjud. Masalan, “душа нараспашку” oçiqköngillilik va saxiylikni ifodalaşi mumkin, “держать каждую копейку” esa pulni haddan taşqari tejaş mazmunini anglatadi. Uşbu misollar uç tilda ham saxiylik ijobiy, xasislik esa salbiy baholanişini körsatadi. Biroq obrazli ifodalaş vositalari va madaniy konnotatsiyalarida farqlar mavjud.

Yaxşilik va yomonlik, samimiylik va bağritoşlik tuşunçalari. Ingliz, özbek va rus tillaridagi frazeologik birliklarda insonning içki dunyosi, ma’naviy fazilatlari va axloqiy xususiyatlarini ifodalaşda “yurak” va “qalb” obrazlari muhim örin tutadi. Masalan, ingliz tilidagi “a heart of gold”, özbek tilidagi “köngli oq” va rus tilidagi “золотое сердце” birliklari samimiylik, pokizalik, mehribonlik va insoniylik kabi ijobiy fazilatlarni ifodalaydi. Mazkur birliklar tarkibidagi “gold” (oltin) komponenti inson qalbining bebaho va yuksak ma’naviy xususiyatlarini ramziy aks ettiradi.

Bunga qarama-qarşi ravişda, ingliz tilidagi “a heart of stone”, özbek tilidagi “toş yurak” va rus tilidagi “каменное сердце” frazeologik birliklari bağritoşlik, rahmsizlik va befarqlik ma’nolarini anglatadi. Uşbu iboralarda toş obrazi inson qalbining qattiqligi, hissizligi va mehr-şafqatdan yiroqligini ifodalovçi salbiy ramz sifatida qöllanadi.

Şuningdek, ingliz tilidagi “warm-hearted”, özbek tilidagi “köngli yumşoq” va rus tilidagi “доброе сердце” birliklari mehribonlik, rahmdillik va boşqalarga nisbatan iliq munosabatni ifodalaydi. Aksinça, ingliz tilidagi “cold-hearted”, özbek tilidagi “köngli qattiq” va rus tilidagi “чёрствое сердце” birliklari rahmsizlik, hissiy sovuqlik va boşqalarning keçinmalariga befarqlik ma’nolarini anglatadi.

Demak, uç til misolida “yurak” va “qalb” komponentlari insonning ma’naviy olamini ifodalovçi universal lingvomadaniy obrazlar sifatida namoyon böladi. Uşbu frazeologik birliklarda oltin va toş, iliqlik va sovuqlik kabi qarama-qarşi obrazlar orqali yaxşilik va yomonlik, mehribonlik va bağritoşlik tuşunçalari zidlanadi. Bu esa ingliz, özbek va rus xalqlari dunyoqaraşida insoniylik, mehr-oqibat va samimiylik kabi qadriyatlarning muştarak ekanligini körsatadi.

Ingliz tilidagi *a heart of gold* va *a heart of stone* birliklari mehribonlik va bağritoşlikni qarama-qarşi qöyadi. Özbek tilida “köngli oq”, “toş yurak”, “köngli yumşoq” kabi birliklar insonning axloqiy xususiyatlarini tavsiflaydi. Rus tilida esa “золотое сердце”, “каменное сердце”, “чёрствое сердце” kabi obrazli ifodalar qöllanadi. Uşbu birliklar uç xalqning ma’naviy qadriyatlarida mehr-oqibat, rahmdillik va insonparvarlik muhim örin tutişini körsatadi. Yurak obrazi uç tilda ham insonning içki dunyosi bilan boğliq universal madaniy ramz hisoblanadi.

Döstlik, hamjihatlik va nizolilik tuşunçalari. Ijtimoiy munosabatlar har qanday millatning mentalitetini belgilovçi muhim omillardan biridir. Ayniqsa, döstlik, ahillik, birdamlik va özaro hurmat tuşunçalari özbek, ingliz va rus xalqlari madaniyatida muhim qadriyat hisoblanadi.

Ingliz, özbek va rus tillaridagi frazeologik birliklarda insonlar örtasidagi ijtimoiy munosabatlar, döstlik, hamjihatlik, totuvlik va adovat tuşunçalari öziga xos tarzda ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi "on good terms", özbek tilidagi "ahil yaşamoq" va rus tilidagi "жить душа в душу" birliklari insonlar örtasidagi yaxşi munosabat, özaro hurmat, samimiylik va totuvlikni anglatadi. Uşbu frazeologik birliklar uç xalqning milliy mentalitetida döstlik, ahillik va özaro hamjihatlik muhim qadriyatlar ekanligini namoyon etadi.

Bunga qarama-qarşi ravişda, ingliz tilidagi "at daggers drawn", özbek tilidagi "bir-biriga qiliç qayramoq" va rus tilidagi "жить как кошка с собакой" iboralari adovat, kelişmovçilik, özaro ziddiyat va nizoli munosabatlarni ifodalaydi. Mazkur birliklarda ingliz va özbek tillarida qurol-yaroğ bilan boğliq "daggers" va "qiliç" obrazlari orqali qarama-qarşilik hamda duşmanlik ifodalansa, rus tilida muşuk va it obrazlari orqali doimiy kelişmovçilik va çiqişmaslik holati tasvirlanadi. Bu esa turli xalqlarning bir xil ijtimoiy hodisani turliça obrazlar vositasida ifodalaşini körsatadi.

Şuningdek, ingliz tilidagi "to stand together", özbek tilidagi "bir yoqadan boş çiqarmoq" va rus tilidagi "держаться вместе" birliklari birlik, birdamlik, özaro yordam va umumiy maqsad yölida birlaşiş tuşunçalarini anglatadi. Ayniqsa, özbek tilidagi "bir yoqadan boş çiqarmoq" iborasi milliy turmuş tarzi va jamoaviylik tuşunçalari bilan boğliq obrazlilikka ega bölib, xalqning hamjihatlik va ahillikka asoslangan qadriyatlarini aks ettiradi.

Demak, ingliz, özbek va rus tillaridagi mazkur frazeologik birliklar insonlararo munosabatlarning ijobiy va salbiy jihatlarini qarama-qarşi qöyiş orqali milliy mentalitetning muhim xususiyatlarini oçib beradi. Ularda döstlik, birdamlik, özaro hurmat va hamjihatlik umumiy insoniy qadriyatlar sifatida namoyon bölsa, adovat va kelişmovçilik salbiy ijtimoiy hodisalar sifatida baholanadi. Şu bilan birga, mazkur birliklarning obrazli tarkibi har bir xalqning öziga xos madaniy tafakkuri va dunyoqaraşini ifodalaydi.

Mehnatsevarlik va işga munosabatning ifodalanişi. Mehnatga munosabat xalqning iqtisodiy hayoti, turmuş tarzi va axloqiy qaraşlari bilan bevosita boğliq. Ingliz, özbek va rus tillaridagi frazeologik birliklarda mehnatsevarlik, hunarmandçilik, mas'uliyat va işga munosabat kabi tuşunçalar muhim örin tutadi. Masalan, ingliz tilidagi "to work one's fingers to the bone", özbek tilidagi "qöli gul" va rus tilidagi "золотые руки" birliklari mehnat va mahorat tuşunçalari bilan boğliq. Ingliz tilidagi ibora tinimsiz, maşaqqatli mehnat qilişni anglatsa, özbek va rus tillaridagi birliklar insonning biror işni mohirona bajarişi, hunar va kasbiy mahoratga egaligini ifodalaydi. Mazkur birliklarda mehnatga hurmat, hunarmandçilik va mahoratni qadrlaş kabi madaniy qadriyatlar namoyon böladi.

Bunga qarama-qarşi ravişda, ingliz tilidagi "to sit on one's hands", özbek tilidagi "qöl qovuştirib ötirmoq" va rus tilidagi "сидеть сложа руки" frazeologik birliklari harakatsizlik, taşabbussizlik va biror işni bajarmasdan bekor ötiriş ma'nolarini ifodalaydi. Uşbu iboralarda "qöl" komponenti insonning mehnat faoliyati va harakatini ifodalovçi ramziy vosita sifatida qöllangan. Uç tilda ham mazkur obraz orqali faoliyat va harakatsizlik örtasidagi qarama-qarşilik namoyon böladi.

Şuningdek, ingliz tilidagi "to pull one's weight", özbek tilidagi "yelka tutmoq" va rus tilidagi "внести свой вклад" birliklari mas'uliyat, hamkorlik, jamoaviy faoliyat va umumiy işga öz hissasini qöşiş tuşunçalarini ifodalaydi. Bu birliklar insonning jamiyat va jamoa oldidagi burçini anglaşi, öz vazifasini bajarişi hamda boşqalarga yordam berişi kabi ijobiy fazilatlarni aks ettiradi.

Demak, ingliz, özbek va rus tillaridagi mazkur frazeologik birliklar orqali mehnatsevarlik, hunar, mas'uliyat va hamkorlik kabi qadriyatlarning uç xalq dunyoqaraşida muhim ahamiyatga ega ekanligi körinadi. Ayniqsa, "qöl" va "yelka" obrazlarining qöllanişi inson mehnati, jismoniy faoliyati va ijtimoiy mas'uliyatining til vositasida qanday ifodalanişini namoyon etadi. Bu esa mehnatga hurmat va jamoaviy hamkorlikning umumiy insoniy qadriyatlar ekanligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA. Ingliz, özbek va rus tillaridagi antonim frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qiliş natijasida ularning semantik mazmunida umumiylik va milliy öziga xoslik mavjudligi aniqlandi.

Birinçidan, uç tilda ham insonning ijobiy va salbiy fazilatlarini qarama-qarşi qöyiş orqali axloqiy baholaş amalga oşiriladi. Saxiylik va xasislik, mehribonlik va bağritoşlik, ahillik va adovat kabi tuşunçalar uçala xalqning tilida ham obrazli vositalar yordamida ifodalanadi.

Ikkinçidan, frazeologik birliklarning tarkibiy komponentlari milliy dunyoqaraşni ifodalaşda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ingliz, özbek va rus tillarida qöl komponenti mehnat va faoliyat bilan boğliq ma'nolarni ifodalaşda öxşaş vazifani bajaradi. Yurak va qalb obrazlari esa insonning içki dunyosi, mehr-muhabbati va axloqiy sifatlarini ifodalaydi.

Uçinçidan, frazeologizmlarda milliy madaniyatning öziga xos obrazlari namoyon böladi. Masalan, rus tilidagi "жить как кошка с собакой" iborasi hayvonlar örtasidagi tabiiy qarama-qarşilik obraziga asoslangan. Özbek tilidagi "bir yoqadan boş çiqarmoq" iborasi esa kiyim va tana a'zolari bilan boğliq obraz orqali jamoaviy birlikni ifodalaydi.

Törtinçidan, ingliz tilidagi *to be over the moon*, özbek tilidagi "boşi osmonga yetmoq" va rus tilidagi "быть на седьмом небе" birliklarida quvonç holati yuqorilik va osmon obrazlari orqali ifodalangan. Bu esa turli tillarda bir xil hissiy holatning öxşaş konseptual asosda şakllanişi mumkinligini körsatadi.

Şu bilan birga, tadqiqotda keltirilgan barça misollarni qat'iy luğaviy antonim juftliklar sifatida baholaş töğri emas. Ayrim birliklar bevosita antonimik munosabatda bölsa, boşqalari kontekstual yoki semantik qarama-qarşilikni yuzaga keltiradi. Masalan, "open-handed" va "tight-fisted" aniq frazeologik zidlikni hosil qilsa, "golden hands" va "sitting on one's hands" turli semantik belgilarga asoslangan qarama-qarşi mazmunli birliklardir. Şuning uçun frazeologik antonimiyani örganişda luğaviy antonimiya bilan kontekstual-semantik qarama-qarşilikni farqlaş muhim metodologik talab hisoblanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, antonim frazeologik birliklar ingliz, özbek va rus xalqlarining milliy mentaliteti hamda madaniy qadriyatlarini aks ettiruvçi muhim lingvomadaniy vositadir. Ularni qiyosiy örganiş nafaqat uç tilning frazeologik imkoniyatlarini aniqlaş, balki xalqlar örtasidagi umumiy insoniy qadriyatlar va madaniy tafovutlarni anglaşga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996.
5. Ashurova, N. (2026). CONCEPTUAL-METAPHORICAL INTERPRETATION OF PRECIPITATION TERMS IN ENGLISH AND UZBEK: THE CASE OF RAIN/YOMG ‘IR, SNOW/QOR AND HAIL/DO ‘L. Scientific and innovative research in the social and humanitarian sphere, 3(9), 166-170.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
7. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
8. Nishonov, I. A. (2021). O‘RTA MAKTABLARDA CHET TILI O‘QITISHNING BA’ZI BIR MASALALARI. Oriental Art and Culture, 2(4), 580-583.
9. Odilova , S. . (2025). INGLIZ, O‘ZBEK TILLARIDA OVQATLANISH MADANIYATIGA OID PAREMIYA VA FRAZEOLOGIZMLARNING

UMUMIYLIK VA FARQLARI. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 4(22), 20–22.

10. Satimboyeva, O. A. (2026). Features of the interdisciplinary development of phonopragmatics in modern linguistics. Philology Matters, Series: Doctoral Program, D(3), 144–162. https://philmatt.uzswlu.uz/article/383

11. Vinogradov V.V. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Академик А.А. Шахматов. – Москва–Ленинград, 1947.

12. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York: Oxford University Press, 1997.